

TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING AHAMIYATI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti

*Xasanbayeva Zumrad Qahramon qizi, Xasanbayeva Klara Qahramon qizi,
Xasanbayeva Shoira Rahmatulla qizi*

Annotatsiya: Har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblangan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va uni boshqarish negizi boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan tashkil topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5- sentabrda "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3931- son qarori qabul qilingan. Qarorga asosan ta'lim muassasalarini boshqarishning maqsad, vazifalarini va uni samarali boshqarish uslublari, xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Maktab rahbarlarining ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishi va uni boshqarishi hamda jamoa fikrini o'rganishi, shuningdek, o'z ustida ishlashi jarayonlarida boshqaruvchilik qobiliyatlarini mustaqil shakllantirib borishlarida shaxsiy rivojlanishning asosi bo'lgan asosiy pedagogik tushunchalar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishi, avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Rivojlanish o'zida shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa xislatlarining takomilini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi.

Rivojlanish- bu insonning ruhiyati va organizmidagi sifatli o'zgarishlardir. Bu o'zgarishlar ijtimoiy muhit, uy- joy sharoitlari, uni qurshab turgan kishilarning ta'siri natijasida yuz beradi.

Ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda, ta'lim muassasasi rahbari, o'qituvchi- xodim hamda o'quvchilar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tabriyaviy munosabatlar deb atash mumkin.

Tarbiyaviy munosabatlar- insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'zini- o'zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu boshqaruv jarayonida rahbarlar bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni rahbarlarning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, fan- texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi xodimlarning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Muloqot jarayonida rahbarning samimiy va diqqat bilan o'z suhbatdoshiga qarab

turishi va uni tinglay bilishi, suhbatdoshiga o'z fikrini to'la va to'g'ri ifodalashi hamda samimiy suhbatlashishi uchun imkon yaratish bilan bir qatorda o'qituvchi-xodimlarning o'z rahbarlari bilan bemalol suhbatlashishlari, o'z fikrlarini va takliflarini rahbarlarga bildirishlari, yangiliklar yaratish borasida ham rahbarlarga suyanish mumkinligiga ishonch hosil qilishlarida, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda ham o'zining ijobiy samarasini ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi rahbari har doim xodimlarning mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishiga ta'sir etadigan sub'ektiv hamda ob'ektiv omillarga e'tibor berishi kerak. Rahbar yaratgan yangiliklar, uning ilmiy- ijodiy mehnati, yozgan kitoblari, qo'llanma yoki ilmiy- uslubiy maqolalari o'z jamoasidagi tarbiyaviy munosabatlarni tartibga solib borishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni samarali boshqarish barcha maktab rahbarlarida pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik zaruriyatini belgilaydi. Chunki pedagogik qobiliyatlar ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan suhbatlarda turli xil tushuntirish, ko'rsatmalar berish, xodimlarning faolligini oshirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabat bildirish va boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar faoliyatida tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodiy, kommunikativ boshqaruv hamda boshqa ko'nikma va malakalar qatori pedagogik qobiliyat alohida o'rin tutadi.

Pedagogik qobiliyat- bu boshqaruv jarayonida rahbar uchun eng zaruriy xususiyatlardan bo'lib, rahbarning pedagogik faoliyati yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqara olishni belgilaydi.

Insonlarning o'zaro munosabatlari, muloqoti, o'zaro ta'sir ko'rsatish, ya'ni o'zaro boshqaruv, birgalikdagi faoliyat natijalarida xosil bo'ladigan o'zgarishlar, hissiy kechinmalar, vujudga keladigan tasavvurlar, fikr va g'oyalar turli xil jarayonlarda vujudga keladi, bunday jarayonlarni psixik jarayonlar deb ataladi.

Psixik jarayonlar- bu ob'ektiv olamni sub'ektiv aks ettirish turli shakllaridir. Psixik jarayonlarning asosiy turlari sezgi, idrok, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur, nutq, hissiyot, iroda bo'lib, ular o'z navbatida uch guruhga birikadi: bilish jarayonlari, irodaviy jarayonlar, hissiy jarayonlar.

Rahbarlik- insonlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir. Rahbarlar qator funksiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, mazkur faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalarini va usullarini belgilaydi, ularni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Liderlik asosan ma'lum bir guruhda o'zi boshchilik qilayotgan yo'nalishlarda shaxslararo munosabatlarni boshqarib, u o'z guruhi a'zolarining kuchli va salbiy

tomonlarini, ijobiy va salbiy odatlarini, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlari, kayfiyatlari, moyilligi, intilishlari hamda qiziqishlarini yaxshi bilganligi sababli yetakchilik qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. B. X. Xodjayev UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent -2017.
2. R. X. Djuraev, S. T. Turg’unov TA’LIM MENEJMENTI “ Voris-nashriyot”. Toshkent-2006.